



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 240 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ihombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS

O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi	191
<i>Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li</i>	
Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli	196
<i>Salomova Nargiza Sattorovna</i>	
Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili.....	200
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish	205
<i>Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish...	210
<i>Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	216
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni.....	220
<i>Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari	223
<i>Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi</i>	
Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology	226
<i>Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati	229
<i>Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich</i>	
Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи	233
<i>Маматкулов Равшанжон Солижонович</i>	
Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной"	237
<i>Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек</i>	

ART-PEDAGOGIKA VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Gulboyev Akbar Tuxytayevich

BuxDPI, umumiy pedagogika kafedrası dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishda art-pedagogika vositalaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritiladi. Unda art-pedagogikaning mazmun-mohiyati, boshlang'ich ta'lim jarayonidagi tarbiyaviy imkoniyatlari, tasviriy san'at, musiqa, teatr, badiiy so'z, ijodiy topshiriqlar va estetik kuzatuvlarning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada estetik dunyoqarashni rivojlantirish orqali o'quvchilarda go'zallikni his etish, ijodiy fikrlash, emotsional sezgirlik, madaniy xulq-atvor va badiiy didni tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: art-pedagogika, boshlang'ich ta'lim, estetik dunyoqarash, ijodiy faoliyat, badiiy did, tasviriy san'at, musiqa, teatr, estetik tarbiya, o'quvchi shaxsi.

Abstract: This article highlights the pedagogical significance of using art-pedagogical tools in shaping the aesthetic worldview of primary school students. It analyzes the essence and content of art pedagogy, its educational opportunities in the process of primary education, as well as the role of fine arts, music, theatre, artistic expression, creative tasks, and aesthetic observation in the development of students' personalities. The article also pays special attention to the development of students' sense of beauty, creative thinking, emotional sensitivity, cultural behaviour, and artistic taste through the formation of an aesthetic worldview.

Key words: art pedagogy, primary education, aesthetic worldview, creative activity, artistic taste, fine arts, music, theatre, aesthetic education, student personality.

Аннотация: В данной статье освещается педагогическое значение использования средств арт-педагогика в формировании эстетического мировоззрения у учащихся начальных классов. В ней анализируются сущность и содержание арт-педагогика, её воспитательные возможности в процессе начального образования, а также роль изобразительного искусства, музыки, театра, художественного слова, творческих заданий и эстетических наблюдений в формировании личности учащегося. Кроме того, в статье особое внимание уделяется вопросам воспитания у учащихся чувства прекрасного, творческого мышления, эмоциональной восприимчивости, культурного поведения и художественного вкуса посредством развития эстетического мировоззрения.

Ключевые слова: арт-педагогика, начальное образование, эстетическое мировоззрение, творческая деятельность, художественный вкус, изобразительное искусство, музыка, театр, эстетическое воспитание, личность учащегося.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarga faqat bilim berish emas, balki ularni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk, ijodkor va estetik didga ega shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bola shaxsining shakllanishida alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan shu davrda o'quvchilarning atrof-muhitga munosabati, go'zallikni anglash qobiliyati, ijodiy tasavvuri, badiiy didi va madaniy xulq-atvori shakllana boshlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi tabiatdagi ranglar uyg'unligi, musiqa ohangi, ertaklardagi obrazlar, rasmlardagi ifoda, o'yinlardagi harakat va badiiy so'z orqali dunyoni idrok etadi. Shu bois ta'lim jarayonida san'atga asoslangan pedagogik yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv zamonaviy pedagogikada art-pedagogika deb ataladi.

Art-pedagogika – bu san'at vositalari orqali ta'lim va tarbiya berishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatdir. U tasviriy san'at, musiqa, teatr, raqs, badiiy adabiyot, qo'l mehnati, ijodiy o'yinlar va boshqa san'at turlarini



o'quv-tarbiya jarayoniga uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Art-pedagogikaning asosiy maqsadi o'quvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirish, emotsional dunyosini boyitish, go'zallikni anglash va qadrlash ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Art-pedagogika bolaning ichki dunyosiga san'at orqali ta'sir ko'rsatadi. Oddiy tushuntirish yoki nazariy ma'lumot berish ba'zan kichik yoshdagi o'quvchi uchun yetarli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Ammo rasm chizish, qo'shiq kuylash, ertaklarni sahnalashtirish, musiqa tinglash, ranglar bilan ishlash va qo'l mehnati buyumlarini yaratish orqali bola mavzuni chuqurroq his qiladi hamda anglaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'lim jarayonida estetik dunyoqarashni shakllantirish faqat bitta fan yoki alohida mashg'ulot doirasida amalga oshirilmaydi. Aksincha, bu jarayon barcha fanlar, tarbiyaviy tadbirlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va kundalik pedagogik munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda kechadi. Shu jihatdan art-pedagogika integrativ yondashuvni talab etadi. Ya'ni san'at vositalari ona tili, o'qish savodxonligi, matematika, tabiatshunoslik, tarbiya, musiqa, tasviriy san'at va texnologiya fanlari bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar tabiatan qiziquvchan, ta'sirchan va ijodiy faoliyatga moyil bo'ladilar. Ular ko'rgan narsasini chizishga, eshitgan voqeasini hikoya qilishga, obrazlarga taqlid qilishga, qo'shiq kuylashga va turli buyumlar yaratishga intiladilar. Art-pedagogikaning asosiy afzalligi shundaki, u boladagi ana shu tabiiy ijodiy ehtiyojni to'g'ri pedagogik yo'nalishga yo'naltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari obrazli tafakkurga ega bo'lganliklari sababli ular uchun ko'rgazmalilik, harakat, rang, ohang va hissiy ta'sir juda muhimdir. Art-pedagogika aynan shu xususiyatlarga tayanadi. Masalan, ona tili darsida ertak qahramonlarini sahnalashtirish, tabiatshunoslik darsida fasllarni ranglar orqali tasvirlash, tarbiya darsida yaxshi va yomon xulq namunalari rolli o'yinlar orqali ko'rsatish o'quvchilarning mavzuni osonroq va chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Ijodiy faollik o'quvchining mustaqil fikrlashi, tasavvur qilishi, yangilik yaratishga intilishi va o'z fikrini erkin ifoda etishi bilan bog'liqdir. Art-pedagogika dars jarayonida o'quvchini faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchi shaxsga aylantiradi. Masalan, "Mening orzumdagi maktab", "Men sevgan fasl", "Vatanim manzarasi", "Mehribon do'stim", "Tabiatni asraymiz" kabi mavzularda rasm chizish o'quvchining ichki dunyosini, orzu-istaklarini va estetik qarashlarini namoyon etadi.

Ijodiy topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarga erkinlik berish muhimdir. Agar o'qituvchi har bir ishni qat'iy qolipga solib qo'ysa, bolaning mustaqil tasavvuri cheklanadi. Shu sababli art-pedagogik faoliyatda "bitta to'g'ri javob" tamoyilidan ko'ra, "har bir bolaning o'ziga xos ifodasi bor" degan yondashuv ustuvor bo'lishi kerak. Chunki estetik tarbiya jarayonida bolalarning individual qarashlari, his-tuyg'ulari va ijodiy yondashuvlari muhim ahamiyatga ega. Art-pedagogika o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni ham rivojlantiradi. Bola yaratgan rasm, qo'l mehnati mahsuli, sahna ko'rinishi yoki ijodiy hikoyasi o'qituvchi va sinfdoshlari tomonidan iliq qabul qilinsa, u o'z imkoniyatlariga ko'proq ishonadi. Bu esa uning keyingi darslardagi faolligiga, muloqotga kirishishiga va ijodiy tashabbus ko'rsatishiga ijobiy ta'sir qiladi. Ayniqsa, uyatchan, kamgap yoki o'z fikrini og'zaki bayon qilishda qiynaladigan o'quvchilar uchun art-pedagogika juda foydalidir. Bunday bolalar ba'zan so'z bilan ifoda eta olmagan his-tuyg'ularini rasm, rang, harakat, musiqa yoki qo'l mehnati orqali namoyon etadilar. Demak, art-pedagogika o'quvchilarning ichki dunyosini anglash, ularning emotsional holatini tushunish va pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Estetik dunyoqarash – bu insonning borliqdagi go'zallikni ko'ra olishi, anglay olishi, qadrlashi va unga ongli munosabat bildira olishidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirish ularning ma'naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Estetik dunyoqarashga ega bola tabiatga befarq qaramaydi. U gulning rangi, qushlarning sayrashi, osmonning musaffoligi, maktab hovlisining ozodaligi, sinfxonaning bezagi, kiyinish madaniyati va nutq go'zalligini qadrlay boshlaydi. Bunday o'quvchi atrof-muhitni asrashga, chiroyli yozishga, odobli gapirishga hamda mehnat mahsulini qadrlashga intiladi.

Boshlang'ich sinf yoshida estetik dunyoqarashni shakllantirishning muhim jihati shundaki, bu davrda bolalar ta'sirchan, qiziquvchan va ijodiy faoliyatga moyil bo'ladilar. Agar o'qituvchi ushbu tabiiy qiziqishni to'g'ri yo'naltira olsa, o'quvchida san'atga, tabiatga, milliy qadriyatlarga va insoniy munosabatlarga nisbatan ijobiy qarash shakllanadi. Estetik dunyoqarash faqat rasm chizish yoki musiqa tinglash bilan chegaralanmaydi. U o'quvchining kundalik xatti-harakatlarida, nutqida, kiyinishida, sinfdoshlariga munosabatida, maktab jihozlariga ehtiyotkorona munosabatida, tabiatga mehrida va o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashuvida ham namoyon bo'ladi. Demak, estetik tarbiya bolaning butun shaxsiy rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishda art-pedagogikaning turli vositalaridan foydalanish mumkin. Ularning har biri o'quvchi shaxsiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tasviriy san'at bolalarda rang, shakl, kompozitsiya va tasavvur orqali go'zallikni anglash qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar rasm chizish jarayonida atrof-muhitni diqqat bilan kuzatadilar, predmetlarning rangi, tuzilishi va joylashuvini farqlashga o'rganadilar. Masalan, "Mening maktabim", "Bahor manzarasi", "Oila davrasida", "Vatanim tabiati" kabi mavzularda rasm chizish o'quvchilarda nafaqat tasviriy ko'nikmalarni, balki estetik va vatanparvarlik tuyg'ularini ham rivojlantiradi. Musiqa esa bolaning emotsional olamiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq kuylash, kuy tinglash va ritmik harakatlarni bajarish o'quvchining kayfiyatini ko'taradi, ruhiy holatini muvozanatlashtiradi hamda go'zallikni eshitish orqali his etishga yordam beradi. Ayniqsa, milliy kuy va qo'shiqlar orqali o'quvchilarda xalqimizning madaniy merosiga hurmat hissi shakllanadi. Teatr va sahnalashtirish usullari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda qiziqarli hisoblanadi. Ertak, hikoya yoki she'r asosida sahna ko'rinishlari tayyorlash bolalarda nutq madaniyati, mimika, harakat, obrazga kirish, jamoada ishlash, hissiy ifoda va estetik idrokni rivojlantiradi. Masalan, "Zumrad va Qimmat", "Bo'g'irsoq", "Ur to'qmoq", "Alpomish" asaridan lavhalar, xalq ertaklari yoki tarbiyaviy hikoyalarni sahnalashtirish o'quvchilarning axloqiy-estetik qarashlarini boyitadi.

Badiiy adabiyot ham art-pedagogikaning muhim vositalaridan biridir. She'rlar, ertaklar, hikoyalar va maqollar orqali o'quvchilar ezgulik, go'zallik, mehnatsevarlik, do'stlik, halollik va vatanparvarlik kabi tushunchalarni obrazli tarzda anglaydilar. Badiiy matn ustida ishlashda o'qituvchi o'quvchilarga qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, voqealardan xulosa chiqarish, chiroyli ifodalarni topish hamda o'z taassurotlarini rasm yoki og'zaki hikoya orqali ifodalash imkonini berishi lozim. Qo'l mehnati va amaliy san'at mashg'ulotlari ham o'quvchilarda estetik dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Qog'ozdan buyum yasash, applikatsiya ishlari, loydan shakllar yasash, bezak ishlari, milliy naqsh elementlarini chizish, tabiat materiallaridan kompozitsiyalar yaratish bolaning mehnatga, go'zallikka va ijodkorlikka bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Art-pedagogika vositalaridan samarali foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchi san'at vositalarini darsga shunchaki qo'shimcha bezak sifatida emas, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vosita sifatida qo'llashi zarur. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va emotsional holatini hisobga olishi kerak. Har bir bola bir xil ijodiy qobiliyatga ega bo'lmasligi mumkin. Kimdir yaxshi rasm chizadi, kimdir chiroyli kuylaydi, kimdir sahnada faol qatnashadi, yana kimdir qo'l mehnatida mahorat ko'rsatadi. O'qituvchi har bir bolaning individual imkoniyatlarini ko'ra olishi va ularni rag'batlantirishi lozim.

Art-pedagogik faoliyatda baholash masalasi ham ehtiyotkorlikni talab qiladi. Masalan, bolaning rasmini faqat texnik jihatdan baholash to'g'ri emas. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun ijodiy jarayonning o'zi muhimdir. O'qituvchi "Rasming noto'g'ri", "Bunday bo'lmaydi", "Sen chiza olmayсан" kabi salbiy iboralardan qochishi kerak. Aksincha, "Ranglarni yaxshi tanlabsan", "Fikring qiziqarli", "Yana bir oz ishlasak, yanada chiroyli bo'ladi" kabi rag'batlantiruvchi so'zlar bolada ijodga bo'lgan ishonchni oshiradi. O'qituvchi art-pedagogika orqali sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi. Rasm chizish, qo'shiq kuylash, sahna ko'rinishi tayyorlash yoki ijodiy o'yinlar bolalardagi tortinchoqlikni kamaytiradi, ularni erkin fikrlashga va o'zini ifoda etishga undaydi. Ayniqsa, kamgap, uyatchan yoki o'ziga ishonchi past o'quvchilar uchun art-pedagogik faoliyat samarali vosita bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinf darslarida art-pedagogik metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, ona tili darsida yangi mavzuni rasm asosida hikoya tuzish orqali tushuntirish mumkin. Matematika darsida geometrik shakllardan bezak yoki kompozitsiya yaratish orqali o'quvchilar shakllarni estetik jihatdan ham idrok etadilar. Tabiatshunoslik darsida fasllar, o'simliklar va hayvonot olami haqida rasm, qo'shiq yoki she'rlar asosida suhbat tashkil etish mumkin.

Tarbiya darslarida esa art-pedagogikaning imkoniyatlari yanada kengroqdir. "Yaxshi xulq", "Do'stlik", "Mehr-oqibat", "Vatan", "Oila", "Tabiatni asraylik" kabi mavzularni sahna ko'rinishi, rasm, hikoya, qo'shiq, maqol yoki ijodiy loyiha orqali yoritish mumkin. Bunday darslarda o'quvchilar mavzuni faqat eshitibgina qolmay, balki his qiladilar, tasvirlaydilar, ijro etadilar va o'z munosabatlarini bildiradilar. Art-pedagogik metodlardan biri – "Ranglar orqali kayfiyatni ifodalash" metodidir. Bu metodda o'quvchilarga turli ranglar taklif etiladi va ular o'z kayfiyatlarini ranglar yordamida ifodalaydilar. Masalan, sariq rang quvonchni, yashil rang tinchlikni, ko'k rang xotirjamlikni, qizil rang esa faollikni anglatishi mumkin. Ushbu metod bolalarning emotsional holatini aniqlash va ularni o'z tuyg'ularini anglashga o'rgatishda samarali hisoblanadi. Yana bir samarali metod – "Ertakni davom ettir" usulidir. O'qituvchi biror ertak yoki hikoyani boshlab beradi, o'quvchilar esa uni rasm, og'zaki hikoya yoki sahna ko'rinishi orqali davom ettiradilar. Bu usul bolalarda ijodiy tafakkur, obrazli tasavvur va estetik ifoda ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Jonli rasm" metodi ham boshlang'ich sinflar uchun juda qiziqarli hisoblanadi. Bunda o'quvchilar biror manzara, voqea yoki obrazni tana harakati, mimika va holat orqali ifodalaydilar. Masalan, "Bahor keldi", "Qushlar uchmoqda", "Daraxtlar shamolda tebranmoqda" kabi holatlarni ifodalash orqali bolalar tabiat go'zalligini harakat vositasida tasvirlashga o'rganadilar.



Art-pedagogika o'quvchilarda nafaqat estetik didni, balki axloqiy fazilatlarini ham rivojlantiradi. San'at orqali bola mehr, do'stlik, hamdardlik, hurmat, sabr-toqat, mas'uliyat va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarini o'zlashtiradi. Masalan, birgalikda sahna ko'rinishi tayyorlash jarayonida o'quvchilar jamoada ishlashni, bir-birini tinglashni, navbat kutishni, rollarni taqsimlashni va umumiy natija uchun harakat qilishni o'rganadilar. Rasm ko'rgazmasini tashkil etish esa ularda o'z mehnatidan faxrlanish, boshqalarning ishini qadrlash va estetik baho berish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Art-pedagogika o'quvchilarning milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini ham shakllantiradi. Milliy naqshlar, xalq ertaklari, maqollar, kuy-qo'shiqlar va hunarmandchilik namunalari orqali bolalar o'z xalqining madaniy merosini anglaydilar va qadrlaydilar. Bu esa ularda milliy g'urur, vatanparvarlik va madaniy o'zlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, art-pedagogika o'quvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda ham muhim vosita bo'la oladi. Tabiat manzaralarini chizish, qushlar, daraxtlar va gullar haqida she'r hamda qo'shiqlar o'rganish, tabiat materiallaridan ijodiy kompozitsiyalar yaratish orqali bolalarda tabiatga mehr, uni asrash va go'zalligini qadrlash hissi kuchayadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, art-pedagogika vositalari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim pedagogik yo'nalishlaridan biridir. Chunki boshlang'ich ta'lim davrida bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi, his-tuyg'ulari, didi va ijodiy qobiliyatlari faol shakllanadi. Shu jarayonda san'at vositalaridan maqsadli foydalanish o'quvchilarning estetik idroki, ijodiy tafakkuri, badiiy didi va madaniy xulq-atvorini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Art-pedagogika o'quvchini faqat bilim oluvchi sifatida emas, balki his qiluvchi, yaratuvchi, fikrlovchi va go'zallikni qadrlovchi shaxs sifatida tarbiyalaydi. Tasviriy san'at, musiqa, teatr, badiiy adabiyot, qo'l mehnati va ijodiy o'yinlar orqali bola o'z ichki dunyosini ifoda etadi, atrof-muhitga estetik munosabat bildiradi hamda ijtimoiy hayotga faol kirib boradi. Demak, boshlang'ich ta'limda art-pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish o'quvchilarda estetik dunyoqarashni shakllantirish, ularni ijodkor, sezgir, madaniyatli va barkamol shaxs qilib tarbiyalashda katta pedagogik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva Sh. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011.
3. Qodirova F., Toshpo'latova Sh. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2020.
4. Nishonova Z. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2017.
6. Axmedova M. Estetik tarbiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
7. Muhamedova D. Art-terapiya va art-pedagogika asoslari. – Toshkent, 2021.
8. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация: учебное пособие. – М.: Слово, 2000. – 624 с.
9. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.